O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR HOKIMINING QARORI

2024 - yil 4 - yanvar 3-14-0-Q/24 Toshkent shahar hokimligi

“Maxsustrans ishlab chiqarish boshqarmasi” davlat unitar korxonasi tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 29-sentabrdagi PQ-4845-son va Vazirlar Mahkamasining “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 6-fevraldagi 95-son qaroriga muvofiq hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Maxsustrans-ishlab chiqarish boshqarmasi” davlat unitar korxonasi tomonidan maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini ko‘rib chiqish to‘g‘risida” 2023-yil 29-noyabrdagi VI-93-259-14-0-K/23-son qaroriga asosan, “Maxsustrans ishlab chiqarish boshqarmasi” davlat unitar korxonasining 2023 yil 15 noyabrdagi 1170-01-son, Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 21-noyabrdagi 01-3/2374-son xulosasi, O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2023-yil 21-noyabrdagi 02/05-948-son xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Maxsustrans-ishlab chiqarish boshqarmasi” davlat unitar korxonasi tomonidan maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari uchun majburiy to‘lov tariflari miqdorini ko‘rib chiqish to‘g‘risida” 2023-yil 29-noyabrdagi VI-93-259-14-0-K/23-son qarori bilan “Maxsustrans ishlab chiqarish boshqarmasi” DUK tomonidan ko‘rsatiladigan maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori ma’qullanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Maxsustrans ishlab chiqarish boshqarmasi” davlat unitar korxonasi tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.toshkent.uz veb-saytiga joylashtirilishi ta’minlansin.

4. Ushbu qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Raxmonov zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchi **Sh.Umurzakov**

Toshkent shahar hokimining
2024-yil 4-yanvardagi
3-14-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

“Maxsustrans-ishlab chiqarish boshqarmasi” davlat unitar korxonasi tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to‘lov tariflari miqdori

t/r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)
1.	Aholi uchun bir kishi bir oyda QQSsiz	kishi	7 500 (so‘m)
2.	Byudjet, yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarga	1m3	89 977,57 (QQS siz)
3.	Suyuq va qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun byudjet, yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarga	1 tn	188 808,96 (QQS siz)
4.	Qattiq maishiy chiqindilarni “Ohangaron” chiqindi tashlash maydonigacha ND-310 maxsus avtomashinalarida (tsentrovoz) olib chiqish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar (ChQYU va UK filiali)	1 tn	78 507,57 (QQS siz)
5.	Korxona va tashkilot qattiq maishiy chiqindilarini (Yashnobod, Yakkasaroy va Yunusobod, ChQYU) punktlariga maishiy chiqindilarini qabul qilish, utilizatsiya qilish (zichlash) va Ohangaron poligoniga tashish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar (ChQYU va UK filiali)	1 tn	116 461,34 (QQS siz)
6.	Korxona va tashkilot qattiq maishiy chiqindilarini Ohangaron poligoniga qabul qilish va utilizatsiyasi qilish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar (ChQYU va UK filiali)	1 tn	59 399,61 (QQS siz)
7.	Korxona va tashkilotlardan Ohangaron poligoniga chiqindi qabul qilish va ko‘mish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar (ChQYU va UQ filiali)	1 tn	861 112,01 (QQS siz)